



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES
 journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>



LEGAL AND POLITICAL FOUNDATIONS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY

Yulduz I. Islamova

master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yulduzislomova8993@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: security, principle, SCO, "constitutionalism", concept, inviolability, stability, norms, principles.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article aims to study the foreign policy of the Republic of Uzbekistan and its legal foundations and political factors. It is a program designed to further strengthen the international image and prestige of Uzbekistan, and it should be noted that the experiences of various countries are studied in depth, and internal and external risks are taken into account. The main laws and concepts presented in this article are great importance in justifying the legal and political factors of Uzbekistan's foreign policy.

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING HUQUQIY VA SIYOSIY ASOSLARI

Yulduz I. Islomova

magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: yulduzislomova8993@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xavfsizlik, tamoyil, ShHT, "konstitutsionalizm", konsepsiya, daxlsizlik, barqarorlik, norma, prinsiplar.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va uning huquqiy asoslari, siyosiy omillarini O'rganishni maqsad qilib qo'ygan. O'zbekistonning xalqaro imiji va nufuzini yanada mustahkamlashga mo'ljallangan dastur bo'lib, bunda turli mamlakatlarning tajribalari chuqur o'rganilib, shuningdek ichki va tashqi xatarlar inobatga olinganligini ta'kidlash joiz. O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy va siyosiy omillarini asoslashda ushbu maqolada keltirilgan asosiy qionunlar va konsepsiyalar muhim ahamiyat

ПРАВОВЫЕ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Юлдуз И. Исламова

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: yulduzislomova8993@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: безопасность, принцип, ШОС, «конституционализм», концепция, неприкосновенность, стабильность, нормы, принципы.

Аннотация: Целью данной статьи является изучение внешней политики Республики Узбекистан, ее правовых основ и политических факторов. Это программа, призванная еще больше укрепить международный имидж и престиж Узбекистана, и следует отметить, что глубоко изучается опыт различных стран, учитываются внутренние и внешние риски. Основные законы и понятия, представленные в данной статье, имеют большое значение в обосновании правовых и политических факторов внешней политики Узбекистана.

KIRISH

So'ngi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston tashqi siyosati regional tashkilotlar bilan ishtirokini rivojlantirish, iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni kengaytirish va o'zaro qo'shnihilik munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni o'z oldiga maqsad qilib olganligi, xalqaro rivojlanish bosqichlari sari ildamlab ketayotgan ekanligimizning yana bir isbotidir. O'zbekiston Respublika tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish, harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik harakatiga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va ob'ektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldagi tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojarolarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch va siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdori. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini belgilab beruvchi o'z Konstitutsiyasi, konsepsiya va qonunlarga ega bo'lib, bu esa o'z navbatida bugungi kundagi tashqi siyosat barqarorlik, hamkorlik va iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ekanligini huquqiy asoslarini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Ushbu maqola content va tizimli tahlildan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasining suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari; xavfsizlikning bo'linmasligi, ochiqlik va pragmatizm, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "Bizning mamlakat xalqaro miqyosda yaxshi tanilgan, yetakchi va ishonarli mamlakatga aylanmoqda"[1], degan gaplari yurtimizning xalqaro maydondagi yuqori ahamiyati va o'zni oshayotganligini ko'rsatadi. "Biz xalqaro hamkorlikda, regional va global rivojlanishning muhim shakllarida ishtirok etishga erishmoqdamiz"[2] - Sh.M.Mirziyoyevning ushbu fikrlari O'zbekistonning xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini oshirish uchun qaratilgan yo'nalishlarni ko'rsatadi. Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosati, mamlakatimizning ichki islohotlari, o'z hududida va mintaqalararo barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan aloqalarni rivojlantirishga intiladi. Ta'kidlash joizki, tashqi siyosatning huquqiy va siyosiy asoslarini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil yurtimizning shu davrgacha erishgan barcha yutuqlarimiz va samarali natijalarimizning mustahkam huquqiy asosi ya'ni poydevori ekanligini fikrimizning ya'na bir dalilidir. Albatta, nafaqat tashqi siyosatga oid va balki har qanday demokratik tamoyillarga asoslangan islohotlar konstitutsiyaviy huquqga asoslangan bo'lsagina, o'zining samarali natijasini beradi. "O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi" [3].

Shu bilan birga, bugungi dunyo hamjamiyatida xalqaro munosabatlar keng o'rin egallaydi, shu bois ham O'zbekiston tashqi siyosati iqtisodiy rivojlanishni oshirish bilan birga regional va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarnikuchaytirayotgani diqqatga sazavordir. "Biz dunyo mamlakatlarga o'zaro hurmat va aniq sharoitlar asosida munosabatlar o'rnatmoqdamiz"[4]. Zero, Prezidentimizning ushbu so'zlaridan yurtimizning xalqaro munosabatlarda mustaqil va o'zini hurmat qiladigan mamlakat sifatida o'z o'rnini egallayotganini ko'rishimiz mumkin. Avvalo, amalga oshirilgan ishlar va samarali islohotlar

doirasida, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning ko'pchiligida ijobiy natijalarga erishilayotgani kuzatilmoqda. Davlatimiz hozirda yirik xalqaro hamjamiyatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatganligi, jumladan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) doirasida bir qancha samarali natijalarga erishilganligi yurtimiz rivoji uchun xizmat qilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin[5]. Konstitutsiyaviy islohotlar bugungi va istiqboldagi muvaffaqiyatli va barqaror taraqqiyotning zaruriy huquqiy sharti va asosidir. Xususan, u "samarali va yaxshi boshqaruv" tizimini joriy etishning muhim vositasi sifatida hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimini mustahkamlash, hisobdorlik, ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni oshirishga yordam beruvchi konstitutsiyaviy "qoidalar"ni o'rnatadi Natijada boshqaruv sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu o'zgarishlar siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotni rivojlantirishga foyda keltiradi, sarmoya kiritish va taraqqiyotni ta'minlash uchun qulay va barqaror muhit yaratadi[6].

Oxirgi davrlarda yurtimiz miqyosida olib borilayotgan Yangi O'zbekistonni barpo etishga oid samarali sa'y -harakatlar samarasi o'laroq, demokratik tub va siyosiy, jamiyatni shakllantirishga doir islohotlarning amalga oshirilishi, jamiyatimizda konstitutsiyaviy tizimning huquqiy -siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sohalarida faol olib borilayotganidan darak beradi. "Shu boisdan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'ta ahamiyatli va jiddiy vazifalar belgilangan. Mamlakatni modernizatsiya qilishning yetti yo'nalishi bo'yicha 50 dan ortiq kodekslar, qonunlar, strategiyalar, konsepsiya va dasturlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etish ko'zda tutilgan, 100 dan ortiq boshqa tashabbuslar ilgari surilgan"[7]. Strategiya qonunchilik, huquqni anglash, huquqiy tafakkur va huquqni qo'llash tizimini, jamiyatning siyosiy va huquqiy ongini umuminsoniy qadriyatlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga yo'naltiradi. "Shu bilan birga, globallashtirish, raqamlashtirish, iqlim o'zgarishi va jadal o'zgarib borayotgan hayot mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, tinchlik, barqarorlik va milliy mustaqillikni mustahkamlash borasida yangi va yangi yechimini kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa davlatimizning nafaqat tashqi siyosiy omillarida, balki barqaror rivojlanishida Konstitutsiyaning o'rni beqiyosligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilanganligini ko'rishimiz mumkin"[8]. Shu boisdan ham, dunyo amaliyoti bilan

bog'liq jamiyat va davlatni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan islohotlar davlatimiz tashqi va ichki siyosatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini ifodalaydi.

Ya'na bir asosiy tamoyillardan, O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilib, yangi tahrirda ishlab chiqilganligini misol sifatida olishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining asosiy maqsad va vazifalariga ko'ra, «*O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi quyidagi tamoyillardan iborat bo'ladi:*

Birinchidan, *O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;*

Ikkinchidan, *O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi harbiy mojarolarga va tang vaziyatlarga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek, o'z hududida xorijiy davlat harbiy bazalari va ob'ektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi;*

Uchinchidan, *O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;*

To'rtinchidan, *O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga, "Mudofaa to'g'risida"gi qonuniga va Harbiy doktrinasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini himoya qilish, aholining tinch hayoti va xavfsizligini asrash maqsadidagina tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi"[9].* Ushbu konsepsiya O'zbekistonning xalqaro imiji va nufuzini yanada mustahkamlashga mo'ljallangan dastur bo'lib, bunda turli mamlakatlarning tajribalari chuqur o'rganilib, shuningdek ichki va tashqi xatarlar inobatga olinganligini ta'kidlash joiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy va siyosiy omillarni asoslashda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston-2030" kabi loyihalarning amalga oshirilishi bu boradagi fikrimizning yaqqol isbotidir. Bunda, "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasi va "inson – jamiyat – davlat" tamoyilini hayotga faol tatbiq etish, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro hamjamiyatda o'zining munosib o'rnini topish orqali erishiladi[10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5495>
2. Mirziyoev Sh. M. Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5495>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. IV-bob. 18-modda. Lex.uz
4. Mirziyoev Sh. M. 5-ta-davlat-elchilaridan-ishonch-yorliqlarini-qabul-qildi. <https://daryo.uz/2023/08/30/shavkat-mirziyoyev>.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. IV-bob. 17-modda. Lex.uz
6. Saidov A.X. Zamonaviy konstitutsionalizm : milliy va xorijiy tajriba .Toshkent : 2021
7. Saidov A.X.Zamonaviy konstututsionalizm: milliy va xorijiy tajriba. Toshkent: 2021
8. „Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o'zgarish“. Kun.uz. 1-oktabr 2023- yil.
9. Latipov Z. O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi o'zgarishi mumkin.Toshkent: 2023 Kun.uz.<https://kun.uz/uz/77742499> O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi o'zgarishi mumkin.
10. Saidov A.X. Zamonaviy konstututsionalizm: milliy va xorijiy tajriba.Toshkent: 2021